Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 378.1
ORCID: 0009-0000-3129-760

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Nuritdinova Xurshida Narpulatovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
E-mail: xurshidanarpulatovna@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyatning har bir jabhasida samarali muloqot qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ularning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlik deganda shaxsning o'z fikrini aniq va ravon ifodalash, turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot olib borish, muammolarni hal qilish va jamoa bilan ishlash qobiliyatlari tushuniladi. Mazkur maqolada talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati tahlil etiladi. Bugungi globallashuv sharoitida samarali muloqot qobiliyatiga ega bo'lish nafaqat shaxsiy, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlik – bu axborotni aniq va tushunarli yetkazish, turli madaniy va ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot olib borish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Maqolada kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonining asosiy jihatlari, ta'lim muassasalarida bu kompetensiyani rivojlantirish usullari hamda uning talabalarning kasbiy va ijtimoiy hayotiga ta'siri yoritib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy muhit va zamonaviy texnologiyalarning ushbu jarayonga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Natijada, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish yoshlarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari va jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlovchi muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Talabalar, kommunikativ kompetentlik, muloqot madaniyati, ijtimoiy ahamiyat, ta'lim jarayoni, kasbiy muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuv, jamoaviy ishlash, innovatsion fikrlash, madaniyatlararo muloqot, interaktiv usullar, axborot almashinuvi, zamonaviy texnologiyalar.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: Сегодня способность эффективно общаться важна во всех аспектах жизни общества. В частности, развитие коммуникативной компетентности студентов является одним из основных факторов, определяющих их личный и профессиональный успех. Коммуникативная компетентность означает способность человека ясно и свободно выражать свое мнение, эффективно общаться с различными социальными группами, решать проблемы и работать в команде. В данной статье анализируется социальная значимость развития коммуникативной компетентности студентов. В условиях современной глобализации наличие эффективных коммуникативных навыков является важным фактором не только развития личности, но и развития общества.

Коммуникативная компетентность включает в себя способность четко и понятно передавать информацию, эффективно общаться с разными культурными и социальными группами, решать проблемы и работать в команде.

Ключевые слова: Студенты, коммуникативная компетентность, культура общения, социальная значимость, учебный процесс, профессиональная успешность, социальная адаптация, работа в команде, инновационное мышление, межкультурное общение, интерактивные методы, обмен информацией, современные технологии.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract: In today's world, the ability to communicate effectively is vital in all areas of social life. In particular, the development of students' communicative competence is one of the key factors that determine their personal and professional success. Communicative competence refers to an individual's ability to express opinions clearly and confidently, interact effectively with diverse social groups, solve problems, and work collaboratively.

This article explores the social significance of developing communicative competence among students. In the context of modern globalization, strong communication skills are not only essential for personal development but also play a crucial role in the progress of society as a whole.

Communicative competence encompasses the ability to convey information clearly and accurately, engage in effective communication across different cultural and social groups, resolve conflicts, and participate successfully in teamwork.

Key words: students, communicative competence, communication culture, social importance, educational process, professional success, social adaptation, teamwork, innovative thinking, intercultural communication, interactive methods, information exchange, modern technologies.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati nafaqat uning kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki kommunikativ qobiliyatlariga ham bog‘liq. Xususan, talabalar uchun kommunikativ kompetentlik nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali muloqot qilish, fikrni ravon ifodalash, faol tinglash va jamoa bilan ishlash qobiliyatlari talabalarning ijtimoiy moslashuviga, shaxsiy rivojlanishiga va jamiyatdagi o‘rnini topishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, globallashuv va ko‘p madaniyatli muhitda yashash talabalarni nafaqat o‘z ona tilida, balki boshqa tillarda ham samarali muloqot qila olishga undaydi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari muloqot shakllarini o‘zgartirib, yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish hozirgi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlilikni muloqotni qo‘yilgan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan bemalol va samarali amalga oshirish imkonini beradigan kommunikativ malakalar va ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida tushunish mumkin degan fikrga umuman olganda qo‘shiladilar, biroq, ushbu malakalarning kompleksi juda keng bo‘lishi va turli xil malakalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkin deb ta'kidlashadi. Masalan, kommunikativ kompetentlikni shaxsning kasbiy kompetentligining komponentlaridan biri deb o‘rganishda olim S.A. Drujilov uning strukturasida: “fikrlar aniq va tushunarli qilib bayon qilish, ishontirish, isbotlarni asoslash va qurish, fikrlarni tahlil qilish va bayon qilish, oqilona va emotsional axborot o‘tkazish, shaxslararo aloqalarni o‘rnatish,[1, 127-135]

o‘z harakatlarini hamkasblarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, turli ishbilarmonlik vaziyatlarida muloqotning optimal uslubini tanlash, dialogni tashkil qilish va davom ettira olish malakalari” kabi kommunikativ malakalarning mavjudligini ta’kidlaydi.

Ushbu maqolada talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy mazmun va mohiyati, uning jamiyatdagi ahamiyati, ta’lim jarayoniga ta’siri hamda ijtimoiy hayotdagi roli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ushbu kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullari ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlilik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lgan. N.A.Muslimovning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun talabalar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lishi, ta’lim tarbiya jarayonida o‘zaro ta’sir jarayonlariga moslashuvchan bo‘lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo‘llaganda talabalar va o‘qituvchi o‘zaro bir-birini tushunishi talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar va lug‘atlar tahlillariga ko‘ra kompetensiy so‘zi shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini anglatadi [2 ; 396-b.].

Shuningdek tadqiqotlarda kompetensiya quyidagicha ifodalanadi: «Bu shakllanadigan ko‘nikma, bilim, malaka yig‘indisidir boshqa turdagi faoliyat yoki intizomni, shuningdek, qobiliyatni o‘rgatishda olingan ko‘nikma, malaka va bilimlarni qo‘llagan holda u yoki bu faoliyatni amalga oshirish”.

G.A.Asilova dissertasiya ishida «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bo‘yicha berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda «kompetensiya» – ma’lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; «kompetentlik» muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir [3; 12-13-b.] deb ta’riflagan.

J.E.Usarov o‘z ilmiy ishlarida kompetensiyaning «ma’lum soha yoki yo‘nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan tayyorlikning namoyon bo‘lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir» ta’rifini ko‘rsatib o‘tgan.

Tadqiqotchilar O.M.Bobiyenko va Z.N. Safin kompetentlik tushunchasini ta’riflashda bilim, ko‘nikma va malakalarni inkor etmasdan ulardan farqini quyidagicha ifodalaydi: «bilimdan farqi – shundaki, kompetentlik faoliyat ko‘rinishida mavjud bo‘ladi, u haqda axborotnigina bilish (bilish shart, biroq uni bilimni amaliy jihatiga qodir bo‘lmaslik) dan farq qiladi. Malakadan farqi – shundaki, kompetentlikda turli xil vazifalarni hal etishda o‘zgarishlar bo‘lishi (turli obyektlar ta’siriga o‘tishi) mumkin. Malakadan farqi – shundaki, ular anglangan va avtomatlashtirilmagan, insonga nafaqat odatiy muhitda, balki yangi noodatiy muhitda ham harakat qilish imkonini beradi». N.F.Radionova [4] ilmiy ishlarida kompetentlikning tabiati va inson e’tiqodining bog‘liqligini ta’kidlab o‘tadi.

Muloqot inson hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir, uning zamonaviy jamiyatda ijtimoiylashuvi va o‘zini o‘zi anglashda o‘rni benihoya kattadir. Tadqiqotlarda aloqaning ta’rifi quyidagicha: “Aloqa bu – ma’lumotni bir odamdan boshqasiga o‘tkazish odamlarning kognitiv va mehnat jarayonida o‘zaro ta’siri shakli birinchi navbatda til yordamida amalga oshiriladigan

faoliyat, shuningdek, boshqa imo-ishora tizimlari, masalan, imo-ishora tili".

X.Ibragimovning fikricha, kommunikatsiya bu birinchi navbatda, faoliyat usuli bo'lib, u insonlarning o'zaro muomalaga moslashishini namayon qiladi. Demak, kommunikatsiya o'ziga xos o'zaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. Shuningdek, kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin. Sh.S.Sharipov oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko'nikmalar to'plami bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni haqiqiy o'quv amaliyotida qo'llash samaradorligi bilan belgilanadi. Kompetentlikka ega bo'lish qobiliyatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishlikni anglatishini qayd etadi.[5, 140 b]

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetentlik – bu nafaqat lingvistik bilim va ko'nikmalarga, balki psixologik va sotsiologik omillarga ham bog'liq bo'lgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlikning nazariy asoslari N.A.Muslimov, G.A.Asilova, J.E.Usarovlar o'z ilmiy ishlarida kommunikativ qobiliyatlarni til bilish va uni amaliy qo'llay olish bilan bog'lagan bo'lsa, M. Baktin muloqotni ijtimoiy va madaniy kontekstda o'rganish muhimligini ta'kidlagan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa kommunikativ kompetentlikning raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ko'pchilik tadqiqotchilar, kompetentlikka asoslangan yondashuv hayotga obyektiv sabablar bilan shartlangan deb ta'kidlaydilar, zero jamiyatni qamrab olgan globalizatsiya, integratsiya jarayonlari, hayotning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining o'zgarishlarini tez sur'atlari, bilimlarning yangilanishi, axborot hajmlarining oshishi, avtomatlashtirilgan va kommunikatsion texnologiyalarni kirib kelishi va boshqa holatlar oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashning darajasi va sifatiga qo'yiladigan talablar o'zgarishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan talablar orasida faoliyatni keng individual, iqtisodiy va madaniy sohada tashkil etish imkonini beradigan tizimli tashkil etiladigan intellektual, kommunikativ, pefleksiya qildiruvchi, o'zini qobiliyatini mustaqil namoyon eta olishini ustuvor darajaga ko'taradi. Kasbiy bilishning tor ixtisoslashuvi, vazifalarni bajarish va algoritmlashtirilgan modellar, va bu hatto eng murakkab modellar bo'lsa ham, doirasida amal qilish qobiliyati bugungi kunda o'z o'rnini "jarayon kategoriyalari bilan fikrlash qobiliyatiga, maqsadni ishning davomida aniqlay olish malakasiga, turli ssenariylar bilan fikrlash, bir necha muqobilliroq variantlarni hisobga olgan holda ish ko'rish qobiliyatiga bo'shatib bermoqda" [6, 114], ya'ni, hayotiy faoliyatni umuman olganda va samarali kasbiy faoliyatni o'zgargan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish bilan amalga oshirish.

Bunday sharoitlarda kompetentlikka asoslangan yondashuv mavjud ta'lim konsepsiyalarga muqobilga aylanmoqda, chunki, ta'limning maqsadlari va natijalarini kompetentlik va kompetensiyalar kategoriyalarda tushunish bilan, u oliy ta'limning umumtizim siljishini iqtisodiyot va mehnat bozorlari tomonga uning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlarini kuchaytirish bilan, hamda bitiruvchilarning o'z hayot faoliyatlariga tobora oshib borayotgan va noaniqlik sharoitlarda moslashuvchanlik darajasini oshirish." imkonini beradi.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv «... kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda

tegishli bilim, ko‘nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o‘qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi» [7; 66-b.].

Ilmiy hamjamiyat avval o‘rgangan va qabul qilgan kompetentlikka asoslangan yondashuvni joriy qilishga ko‘rsatma beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida talabalarning mustaqil faoliyati tajribasini va shaxsiy mas’uliyatini, ya’ni zamonaviy asosiy kompetensiyalarni shakllantirishi zarur» [2].

Kommunikativ kompetentlilikga doir masalalarni tadqiq qilgan tadqiqotchilar ilmiy ishlarida kommunikativ kompetentlilikni shaxsning o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarish uchun eng muhim kompetentliliklardan biri deb qayd qiladilar.

X.Ibragimovning fikricha, kommunikativ kompetensiya – shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir. Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so‘zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, etika va odob-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatda qabul qilingan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo‘lish usullari ifodalanadi.

Kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning tahlili bizga har qanday ta’lim pog‘onasi hamda profilining bitiruvchisi egallashi lozim bo‘lgan tayanch kompetentliklardan biri kommunikativ kompetentlilik ekanligi deb ta’kidlash imkonini beradi. Bunda shuni alohida ta’kidlash lozimki bo‘lajak mutaxassis o‘z kasbiy faoliyatiga muloqotning faol subyekti sifatida nazarda tutiladi. U ko‘pgina insonlar bilan muloqot qila olishi, ularni o‘z fikrlari, g‘oyalarining to‘g‘riligi, adolatli ekanligiga ko‘ndira olishi, o‘z kasbiy nuqtayi nazaridan himoya qila olishi shart.

Buning uchun inson boshqa qabul, idrok qilinishi hamda tushunishning asosiy qonuniyatlarini bilishi, avvalo o‘zini tushuna olishi, atrofdagi insonlarga nisbatan tegishlicha javob qaytara olishi, ularga ta’sir ko‘rsata olishi, ifodalay olish uchun sharoitlar yaratishi, kofliktlar, o‘zaro nizolarni hal qila olishi, o‘z ahvolini tartibga sola olishi, muloqotning nafaqat verbal, balki noverbal vositalarini ham egallagan bo‘lishi shart.

Tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikga shaxsning shaxsiy xususiyatlari va o‘zaro faoliyatning real vaziyatlarida muloqot tajribasi ta’siri ostida ma’lum tarzda rivojlanish natijasi sifatida qaraladi.

B. Oskarson, S. Shoning mazmunan kompetentliklar sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan tayanch ko‘nikmalar haqidagi g‘oyalarini rivojlantirib, boshqalar qatorida jamoada samarali ishlash qobiliyatini, rejalashtirish, muammolarni hal qilish, ijodkorlik, yetakchilik, ishbilarmonlik xulq-atvori, tashkiliy ko‘ra bilish va *kommunikativ ko‘nikmalarni* ajratib ko‘rsatadi [8, 76 b].

O‘z asarida olim V.Xutmaxer beshta tayanch kompetensiyalarning Yevropa Kengashi qabul qilgan ta’rifini keltiradi. Ular orasida, xususan “ishda va ijtimoiy hayotda eng muhim bo‘lgan, shu ma’nodaki, ularni egallamaslik ijtimoiy ajralib qolish tahdidini anglatadigan og‘zaki hamda yozma kommunikatsiyalarni egallashga taalluqli. Kommunikatsiyaning xuddi shu kontekstida bittadan ko‘p tilni egallash ham toboro yuqori ahamiyat kasb etmoqda”. Shu asnoda, bunday

talqinda kommunikativ kompetentlik asosan o'zining lisoniy tushunishida til tizimini bilishi, til vositalaridan real muloqot vaziyatlarida nutqiy faoliyatning barcha asosiy turlarida (so'zlashish, tinglab tushunish, o'qish yozishda) foydalanishni nazarda tutish orqali anglaniladi. Biroq, yevropalik uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarning komponentlar tarkibini tahlil qilish orqali asosiy kommunikativ ko'nikmalar boshqa tayanch kompetensiyalarda ham mavjudligiga ishonch hosil qilish ham mumkin. Kommunikativ kompetentlilikning boshqa, shaxsning muloqotdagi, boshqa odamlar bilan o'zaro faoliyatdagi kommunikativ xulq-atvori bilan bog'liq tomoni ham aktuallashadi.

Kompetentlilik tadqioqtchilaridan biri J. Raven kompetentlilikni "ko'pchiligi bir biridan nisbatan mustaqil bo'lgan ko'p sonli kompetentlardan iborat hodisa. Ba'zi komponentlar ko'proq kognitiv sohaga mansub, boshqalari esa emotsional sohaga oid. Samarali xulq atvorning tarkibiy qismlari sifatida bu komponentlar bir birlarini o'rnini almashishi mumkin". "Kompetentlikning turlari" "rag'batlashtirish asosida sabab yotadigan qobiliyatlarni" ifodalashini ta'kidlab, tadqiqotchi kompetentliklarning 37 turini ajratib ko'rsatadi. Ulardan "maqsadga erishish uchun birgalikda ishlay olish qobiliyati"; boshqa odamlarni qo'yilgan maqsadga erishish uchun uyushib ishlashga unday olish qobiliyati"; odamlarning fikrlariga quloq sola olish hamda ularning fikrlarini hisobga olish qobiliyati", "boshqalarga mustaqil qarorlarini qabul qilishga ruxsat berishga tayyorgarlik", "nizolarni hal qilish va kelishmovchiliklarni yumshata olish qobiliyati", "atrofdagilarning turli turmush tarzlariga nisbatan bag'rikenglik"va boshqalari bizning nuqtayi nazarimizda, kommunikativ kompetentlikning yoki shaxsning kommunikativ kompetentliligining strukturasidagi kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida o'rganilishi mumkin.

XULOSA. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali muloqot qobiliyatlariga ega bo'lish talabalar uchun bilim olish jarayonini osonlashtirib, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga zamin yaratadi.

Kommunikativ kompetentlik shaxsning o'z fikrini aniq ifodalash, faol tinglash, jamoaviy ishlash va madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikni shakllantirish talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, ijtimoiy faolliklarini oshiradi va ularni zamonaviy kasbiy muhitga tayyorlaydi.

Shuningdek, kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy muhitda o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalarning muloqot qobiliyatlari rivojlanganida, ular ijtimoiy faol bo'lib, jamoaviy qarorlar qabul qilishda, nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda hamda professional sohalarda samarali ishlashda katta ustunlikka ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, talabalar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish – ularning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi muhim omildir. Ta'lim tizimida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish orqali bu kompetentligini shakllantirish, kelajak avlodning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юрченко Н. Е. "Культура общения будущего оркестрового дирижера как основа профессиональной подготовки" Российский Государственный Социальный Университет Тип: Статья В Журнале - Научная Статья. Год: 2012 Страницы: 127-135

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 396- b

3. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avto. – T., 2017.

4. Радионова Н.Ф., Компетентностный подход в педагогическом образовании [Электронный ресурс] / Н.Ф. Радионова, А.П. Тряпицына // Электронный научный журнал «Вестник Омского государственного педагогического университета». - Выпуск 2006. - 6 с. - Режим доступа: http://w ww.om sk.edu/ article/ vestnik-omgpu-75.pdf

5. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya.-Toshkent, Fan, 2005.-140 b.

6. Байденко, В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования (методологические и методические вопросы): Методическое пособие / В.И. Байденко. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. -114 с.

7. Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) … diss. avto. – T., 2017. – 66 b.

8. Оскарссон, Б. Базовые навыки как обязательный компонент высококачественного профессионального образования / Б. Оскарссон //Оценка качества профессионального образования. Доклад 5/ Под общ. ред. В.И.Байденко, Дж. Ван Зантворта, Европейский фонд подготовки кадров (ЕФО). Проект ДЕЛФИ. - М., 2001.